

O'ZBEKISTONDA SUD QARORLARINI IJRO ETISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI

Sattorov Samandar Boymirzo o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" 2-kurs talabasi

Tel.: +998(97) 639-01-55

e-pochta: xtemirov@gmail.com

Soliyev Dilshod Baxtiyor o'g'li

Ilmiy rahbar: JIDU Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrası katta o'qituvchisi

e-pochta: dsoliyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20204822>

Annotatsiya: Bu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud qarorlarini majburiy ijro etish tizimining amaldagi holati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sud hokimiyati samaradorligini ta'minlashda hukmlarni ijro etish instituti hal qiluvchi bosqich ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, Majburiy ijro byurosi faoliyatidagi muammolar, davlat ijrochilarining yuqori ish yuklamasi, raqamlashtirish darajasining yetarli emasligi, ma'muriy sud qarorlarini ijro etishdagi qiyinchiliklar va mas'uliyat mexanizmlarining zaifligi ilmiy-huquqiy jihatdan yoritilgan. Maqolada Germaniya, Singapur, Fransiya va Estoniya kabi davlatlarning ilg'or tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari sud qarorlarining samarali ijro etilishi sud hokimiyatining haqiqiy kuchi va fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini belgilovchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sud hokimiyati, sud qarorlarini ijro etish, Majburiy ijro byurosi, ijro hujjatlari, sud-huquq islohotlari, raqamlashtirish, E-ijro tizimi, ma'muriy sud qarorlari, davlat ijrochisi, qonun ustuvorligi, sud samaradorligi, xalqaro tajriba.

Annotation

This article analyzes the current state of the compulsory enforcement system of court decisions in the Republic of Uzbekistan, the existing problems, and the prospects for overcoming them. The study substantiates that the institution of enforcement of court judgments is a decisive stage in ensuring the effectiveness of judicial power. Furthermore, the article examines the problems in the activities of the Bureau of Compulsory Enforcement, the excessive workload of state enforcement officers, the insufficient level of digitalization, the difficulties in enforcing administrative court decisions, and the weakness of accountability mechanisms from a scientific and legal perspective. The experiences of countries such as Germany, Singapore, France, and Estonia are comparatively analyzed, and practical recommendations applicable to Uzbekistan are developed. The results of the study demonstrate that the effective enforcement of court decisions is an important factor determining the real strength of judicial power and citizens' trust in justice.

Keywords: Judicial power, enforcement of court decisions, Bureau of Compulsory Enforcement, enforcement documents, judicial reforms, digitalization, E-enforcement system, administrative court decisions, state enforcement officer, rule of law, judicial efficiency, international experience.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются современное состояние системы принудительного исполнения судебных решений в Республике Узбекистан, существующие проблемы и

перспективы их устранения. В ходе исследования обосновано, что институт исполнения судебных решений является ключевым этапом обеспечения эффективности судебной власти. Кроме того, с научно-правовой точки зрения рассмотрены проблемы деятельности Бюро принудительного исполнения, высокая нагрузка государственных исполнителей, недостаточный уровень цифровизации, сложности исполнения решений административных судов, а также слабость механизмов ответственности. На основе сравнительно-правового анализа изучен передовой опыт Германии, Сингапура, Франции и Эстонии, а также разработаны практические предложения, применимые в условиях Узбекистана. Результаты исследования показывают, что эффективное исполнение судебных решений является важным фактором, определяющим реальную силу судебной власти и доверие граждан к правосудию.

Ключевые слова: Судебная власть, исполнение судебных решений, Бюро принудительного исполнения, исполнительные документы, судебно-правовые реформы, цифровизация, система E-ijro, решения административных судов, государственный исполнитель, верховенство закона, эффективность суда, международный опыт.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari mamlakatning demokratik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Adolat - jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, uning ta'minlanishi har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng muhim kafolati hisoblanadi"¹. Bugungi kunda sud hokimiyati faqat qonun ustuvorligini ta'minlash bilan cheklanmay, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini real himoya qilishning asosiy mexanizmiga aylanishi kerak. Shu bilan birga, sud qarorlarining samarali ijro etilishi sud hokimiyatining haqiqiy kuch-qudratini belgilovchi omil sifatida qaralmoqda. Hukmlarni majburiy ijro etish instituti sud adolatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Sud qarori chiqarilgandan keyin uning ijro etilmasligi nafaqat fuqarolarning huquqlari buzilishiga, balki sud tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga ham olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlarida, xususan, 2020-yildagi PF-6034 va PF-6127-sonli farmonlarda sud qarorlarini ijro etish tizimini takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash va ijro jarayonlarini raqamlashtirish vazifalari alohida belgilab berilgan². Shunga qaramay, amaliyotda sud hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilmasligi, ijro xizmatining samarasiz ishlashi, byurokratiya va mas'uliyatning yetarli emasligi kabi muammolar hali-hanuz saqlanib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, huquqshunos olim A. Ergashevning fikricha, "sud qarorlarini ijro etish mexanizmining samarasizligi butun sud tizimining samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir"³. Xalqaro ekspertlar ham ta'kidlaydiki, sud qarorlarining ijro etilish darajasi fuqarolarning sudga bo'lgan ishonch ko'rsatkichini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi. BMTning sud mustaqilligi bo'yicha maxsus hisobodchilar hisobotlarida ham ijro etish institutining mustahkamligi sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligining muhim tarkibiy qismi ekanligi qayd etilgan. Bu maqolaning asosiy

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.07.2020 yildagi PF-6034-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4910826>

³ Ergashev A.E. Sud qarorlarini tan olish va ijro etishda yangi muammolar. Ilmiy maqola.

maqsadi shuki, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining samaradorligini oshirish va hukmlarni majburiy ijro etish institutini takomillashtirishning huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotimning asosiy vazifalariga to'xtaladigan bo'lsam, bunda birinchidan sud hokimiyati samaradorligini baholashning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganish,

O'zbekistonda hukmlarni ijro etish institutining hozirgi holatini va mavjud muammolarni tahlil qilish, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va sud qarorlarini ijro etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining samaradorligini oshirish va hukmlarni majburiy ijro etish institutini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda huquqshunos olimlar va amaliyotchilar tomonidan faol tadqiq etilmoqda. Sud qarorlarini ijro etish instituti sud adolatining yakuniy bosqichi sifatida baholanadi, chunki sud qarori ijro etilmasa, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari himoyalangan bo'lib qoladi hamda sud tizimiga bo'lgan ishonch pasayadi. Bu sohani tartibga soluvchi asosiy hujjat - O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni⁴ hisoblanadi. Bu Qonun bilan Majburiy ijro byurosi tashkil etilgan bo'lib, davlat ijrochilarining vakolatlari belgilab berilgan.

Ilmiy tadqiqotlarda sud hujjatlarini ijro etishdagi asosiy muammolar yoritilgan, unga ko'ra ijro hujjatlarining o'z vaqtida bajarilmasligi, byurokratiya, mas'uliyat mexanizmlarining zaifligi va ma'muriy sud qarorlarini ijro etishdagi qiyinchiliklar kiritilgan. Xususan, Oliy sud sudyasi Shaxnoza Axatova ma'muriy sud qarorlarini ijro etishda ijro varaqasi berilmasligi va qonunchilikdagi nomuvofiqliklar muammo manbai ekanligini ta'kidlagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sud-huquq islohotlariga bag'ishlangan farmon va nutqlarida sud qarorlarini ijro etish tizimini takomillashtirish, ijro jarayonlarini raqamlashtirish va davlat ijrochilarining mas'uliyatini oshirish vazifalari bir necha bor belgilangan. Shunga qaramay, amaliyotda ijro etish ko'rsatkichlari yetarli emasligi statistik ma'lumotlarda ham ko'rinadi. Masalan, ba'zi yillarda millionlab ijro hujjatlarining bir qismi to'liq ijro etilmagan⁵.

Xorijiy tajribada - AQSh, Germaniya, Singapur va boshqa rivojlangan mamlakatlarda sud qarorlarini ijro etishda elektron monitoring, avtomatik undirish tizimlari va xususiy ijro institutlari keng qo'llaniladi. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sohada huquqiy baza yaratilgan bo'lsada, institutsional va amaliy muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mavjud qonunchilikni takomillashtirish, ijro xizmatini raqamlashtirish, mas'uliyat mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro tajribani chuqurroq o'rganish orqali sud hokimiyatining haqiqiy samaradorligini oshirish mumkin.

Bu tadqiqotda huquqiy-dogmatik, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullari qo'llanildi. Huquqiy-dogmatik usul doirasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni, Fuqarolik protsessual kodeksi, Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi hamda Prezidentning sud-huquq islohotlariga oid farmonlari chuqur tahlil qilindi. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida Germaniya, Singapur,

⁴O'zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8148836>

⁵ Prezident farmonlari PF-4947.

Fransiya va Rossiya tajribasi O'zbekiston tajribasi bilan qiyoslandi. Tizimli tahlil usuli orqali Majburiy ijro byurosi statistik ma'lumotlari, sud qarorlarining ijro etilish ko'rsatkichlari va ilmiy manbalar o'rganildi. Tadqiqot asosan ikkilamchi manbalarga, ya'ni qonun hujjatlari, ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlarga asoslangan bo'lib, empirik usullar - so'rov va intervyu qo'llanilmadi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining samaradorligi va hukmlarni majburiy ijro etish institutini o'rganish jarayonida bir qator muhim holatlar aniqlandi. So'nggi yillarda sud-huquq islohotlari faol olib borilayotganiga qaramay, sud qarorlarining ijro etilishi hali ham yetarli darajada emas. Majburiy ijro byurosining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, har yili 4-5 milliondan ortiq ijro hujjati qo'zg'atilmoqda. Lekin shulardan faqat 55-68 foizi to'liq ijro etilmoqda. Ayniqsa, ma'muriy ishlar va fuqarolik ishlar bo'yicha chiqarilgan qarorlarning ijro etilish darajasi juda past. Bu esa oddiy fuqarolar va tadbirkorlarning sudga bo'lgan ishonchini pasaytirayotgan asosiy sabablardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot davomida asosiy muammolar aniqlandi, bunga ko'ra, birinchidan, davlat ijrochilarining ish yuki juda og'ir. Bitta ijrochiga o'rtacha 800-1200 ta ijro hujjati to'g'ri keladi. Shu sababli ijro jarayoni sekin kechmoqda va sifati past bo'lmoqda⁶. Ikkinchidan, huquqiy mexanizmlar yetarli darajada ishlamayapti. Masalan, ma'muriy sud qarorlarini ijro etishda ijro varaqasi berilmasligi, qarzdorning mulkini topish va undirish tizimining zaifligi kabi muammolar mavjud. Natijada ko'p sud qarorlari faqat qog'ozda qolib ketmoqda. Uchinchidan, raqamlashtirish masalasi hali ham dolzarb. "E-ijro" tizimi joriy etilgan bo'lsada, uning imkoniyatlari cheklangan. Bank hisoblaridan avtomatik undirish va mulkni real vaqtda monitoring qilish tizimi to'liq ishlamayapti. To'rtinchidan, davlat ijrochilarining mas'uliyati yetarli emas. Qonunni buzgan yoki ishni kechiktirgan ijrochilarni javobgarlikka tortish mexanizmlari amalda zaif. Bu esa ba'zi hollarda mas'uliyatsizlik va korrupsiya xavfini kuchaytirmoqda. Xorijiy tajribani solishtirganda, Singapur, Germaniya va Estoniya kabi mamlakatlarda sud qarorlarining 90-95 foizi muvaffaqiyatli ijro etilishi kuzatiladi⁷. Bunga sabab ularning kuchli raqamli tizimi, xususiy ijro institutlari va qattiq mas'uliyat mexanizmlaridir. O'zbekistonda Prezident farmonlari asosida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, PF-6034 va PF-6243 ma'lum darajada ijobiy natija bermoqda. Lekin bu o'zgarishlar hali tizimli va yetarli emas. Natijada sud hokimiyati qaror chiqaruvchi organ bo'lib qolayotgan bo'lsada, uning qarorlari haqiqatda bajarilmayotgani sud tizimining umumiy samaradorligini pasaytirmoqda. Qisqacha aytganda, sud qarorlarining ijro etilish darajasi sud hokimiyatining haqiqiy kuchini ko'rsatuvchi eng muhim ko'rsatkichdir. Hozirgi vaqtda mavjud muammolar huquqiy, texnologik va institutsional xarakterga ega bo'lib, ularni kompleks hal etmasdan turib sud adolatini to'liq ta'minlash qiyin.

Bu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining samaradorligi va hukmlarni majburiy ijro etish institutini takomillashtirish masalalari tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda sud-huquq islohotlari faol olib borilayotgan bo'lsa ham, sud qarorlarining ijro etilish darajasi hali ham yetarli emas. Har yili millionlab ijro hujjatlari qo'zg'atilayotganiga qaramay, ularning faqat 55-68 foizi to'liq ijro

⁶ Majburiy ijro byurosi amaliyoti va huquqshunos olimlarning tahlillariga ko'ra <https://uz.kursiv.media/en/2025-07-20/over-3500-women-in-uzbekistan-now-required-to-pay-alimony>

⁷ Global guides on enforcement of judgments.

etilmoqda. Bu holat fuqarolar va tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytirmoqda hamda sud adolatining to'liq ta'minlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan kelib chiqib, shu xulosaga keldim - sud qarorlarining ijro etilishi sud hokimiyatining haqiqiy samaradorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Hozirgi vaqtda davlat ijrochilarining haddan tashqari yuqori ish yuki, raqamlashtirishning sustligi, mas'uliyat mexanizmlarining zaifligi va ba'zi huquqiy bo'shliqlar asosiy muammolar sifatida qolmoqda. Xorijiy tajribalar, ya'ni Singapur, Germaniya, Estoniya shuni isbotlaydiki, to'g'ri tashkil etilgan tizim orqali sud qarorlarini ijro etish darajasini keskin oshirish mumkin. Bu ilmiy tadqiqotimdan keyin bir nechta takliflar ham ishlab chiqdim, unga ko'ra, "E-ijro" axborot tizimini to'liq modernizatsiya qilish va yagona raqamli platforma yaratishni takomillashtirish zarur. Bu taklifni amalga oshirish juda muhim, chunki hozirgi vaqtda ijro jarayoni qog'ozbozlikka asoslangan va ko'p vaqt talab qiladi. Zamonaviy raqamli tizim joriy etilsa, bank hisoblaridan avtomatik undirish, qarzdorlar mulkini real vaqtda kuzatish va barcha davlat idoralari sud, MIB, kadastr, banklar o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Misol sifatida aytsak, Singapurda joriy etilgan raqamli ijro tizimi tufayli sud qarorlarining 95% dan ortig'i 6 oy ichida ijro etiladi. Estoniyada esa e-Justice tizimi orqali butun jarayon onlayn amalga oshiriladi va fuqarolar uyidan turib jarayonni kuzatib borishadi. O'zbekistonda ham shunday tizim yaratilsa, ijro muddatlari 2-3 baravar qisqarishi va shaffoflik keskin oshishi mumkin. Ikkinchi taklifim shuki, hozir bitta ijrochiga 800-1200 ta ijro hujjati to'g'ri kelishi ijro sifatini keskin pasaytirmoqda. Shuning uchun ijrochilar sonini ko'paytirish va har bir ijrochi uchun aniq KPI tizimini joriy etish zarur. Yaxshi natija ko'rsatganlarni rag'batlantirish, samarasiz ishlaganlarni esa javobgarlikka tortish mexanizmlari kuchaytirilishi kerak. Germaniyada ijro xodimlarining ish yuki cheklangan va ularning harakatlari doimiy monitoring qilinadi. Natijada sud qarorlarining ijro etilish darajasi 92% dan yuqori. O'zbekistonda esa yuqori ish yuki tufayli ko'plab ishlar kechiktirilgan holatda qolib ketmoqda. Bu muammoni hal qilish sud qarorlarining ijro muddatlarini qisqartirishga va fuqarolarning huquqlarini tezroq tiklashga yordam beradi. Bundan tashqari, ma'muriy ishlar bo'yicha chiqarilgan qarorlar davlat organlariga qarshi eng qiyin ijro etiladigan toifa hisoblanadi. Shu sababli ushbu toifa uchun alohida tezlashtirilgan tartib va mexanizm ishlab chiqish zarur. Fransiyada ma'muriy qarorlar uchun alohida "majburiy ijro" tartibi mavjud bo'lib, davlat organi qarorni o'z vaqtida bajarmasa, avtomatik jarima qo'llaniladi. Natijada ma'muriy qarorlarning ijro etilish darajasi juda yuqori. O'zbekistonda esa bunday mexanizm zaifligi sababli fuqarolar yillar davomida o'z huquqlarini ololmaydilar. Bu taklifni amalga oshirish fuqarolarning davlat organlariga qarshi chiqarilgan sud qarorlarini real himoya qilish imkonini beradi.

Bu uchta taklifni amalga oshirish orqali sud hokimiyatining haqiqiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash va fuqarolar huquqlarini ishonchli himoya qilish mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, sud adolati faqat sud zalida emas, balki qarorning haqiqatda bajarilishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun hukmlarni majburiy ijro etish institutini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish

to'g'risida"gi Qonuni . Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi. – Toshkent, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PF-6034-son Farmoni "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6127-son Farmoni "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish va sud hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Ergashev A. Sud qarorlarini ijro etish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari
9. Axatova Sh. Ma'muriy sud qarorlarini ijro etishdagi muammolar va ularning yechimlari // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi axborotnomasi. – 2022. – №2.
10. Majburiy ijro byurosining rasmiy statistik ma'lumotlari. – Toshkent, 2024.
11. United Nations Special Rapporteur on the Independence of Judges and Lawyers: Annual Report. – New York: United Nations, 2022.
12. European Commission for the Efficiency of Justice. Report on European Judicial Systems. – Strasbourg, 2022.
13. Давид Р., Жоффре-Спинози К. Основные правовые системы современности. – Москва: Международные отношения, 2019.
14. Singapore Judiciary Annual Report 2023. – Singapore, 2023. German Federal Ministry of Justice. Enforcement of Judgments in Germany. – Berlin, 2022.